

## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 014,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan 602,0 mln. AQSH dollariga yoki 16,6 % ga kamaydi.

### Tashqi savdo aylanmasi va balansi

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **3 014,5** -16,6 %

(2023- y.: **3 616,5**)



Saldo

2024- y.: **-1 353,8** (2023- y.: - 1 877,1)



#### Eksport

2024- y.: **830,4** -4,5 %

(2023- y.: **869,7**)

TSA dagi ulushi, % da

**27,5**



#### Import

2024- y.: **2 184,2** -20,5 %

(2023- y.: **2 746,8**)

**72,5**

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori  
ulushga ega bo'lgan davlatlar**  
(2024-yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 830,4 mln. AQSH dollariga (4,5 % ga kamaydi) va import hajmi 2 184,1 mln. AQSH dollariga (20,5 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 353,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

<b>XXR</b> TSA – 860,4 Eksport: 78,1 Import: 782,3  28,5 %	<b>Koreya Respublikasi</b> TSA – 739,0 Eksport: 0,3 Import: 738,7  24,5 %	<b>Rossiya Federatsiyasi</b> TSA – 370,5 Eksport: 202,8 Import: 167,7  12,3 %	<b>Qozog'iston</b> TSA – 313,9 Eksport: 305,2 Import: 8,7  10,4 %	<b>Qirg'iz Respublikasi</b> TSA – 101,2 Eksport: 77,1 Import: 24,1  3,4 %
<b>Meksika</b> TSA – 96,5 Eksport: - Import: 96,5  3,2 %	<b>Braziliya</b> TSA – 88,2 Eksport: 0,5 Import: 87,7  2,9 %	<b>AQSH</b> TSA – 85,9 Eksport: 1,2 Import: 84,7  2,9 %	<b>Afg'oniston</b> TSA – 60,9 Eksport: 60,8 Import: 0,1  2,0 %	<b>Turkiya</b> TSA – 43,7 Eksport: 12,8 Import: 30,9  1,5 %

Andijon viloyati jahonning 72 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXR da (28,5 %), Koreya Respublikasida (24,5 %), Rossiya Federatsiyasida (12,3 %), Qozog'istonda (10,4 %), Qirg'iz Respublikasida (3,4 %) va Meksikada (3,2 %) qayd etilgan.


**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan  
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

	<b>Davlatlar</b>	<b>2022-y.</b>	<b>2023-y.</b>	<b>2024-y.</b>
	<b>XXR</b>	<b>477,4</b>	<b>944,4</b>	<b>860,4</b>
	<i>Eksport</i>	51,6	51,5	78
	<i>Import</i>	425,8	892,9	782,3
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 230,40</b>	<b>1 030,80</b>	<b>739</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,2	0,3
	<i>Import</i>	1 229,70	1 030,60	738,7
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>343,5</b>	<b>234,1</b>	<b>370,5</b>
	<i>Eksport</i>	118,7	165,1	202,8
	<i>Import</i>	224,8	69	167,7
	<b>Qozog'iston</b>	<b>326,6</b>	<b>403,4</b>	<b>313,9</b>
	<i>Eksport</i>	320,8	396,7	305,2
	<i>Import</i>	5,8	6,7	8,7
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>314,2</b>	<b>179,8</b>	<b>101,2</b>
	<i>Eksport</i>	289,2	150,4	77,1
	<i>Import</i>	25	29,5	24,1
	<b>Meksika</b>	<b>36,8</b>	<b>146,8</b>	<b>96,5</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	36,8	146,8	96,5
	<b>Braziliya</b>	<b>35,7</b>	<b>175,4</b>	<b>88,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	0,1	0,5
	<i>Import</i>	35,4	175,3	87,7
	<b>AQSh</b>	<b>60,9</b>	<b>126,2</b>	<b>85,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,3	1,2
	<i>Import</i>	60,7	125,9	84,7
	<b>Afg'oniston</b>	<b>10,5</b>	<b>0,9</b>	<b>60,9</b>
	<i>Eksport</i>	10,5	0,9	60,8
	<i>Import</i>	0,004	0,003	0,1
	<b>Turkiya</b>	<b>84,6</b>	<b>80,4</b>	<b>43,7</b>
	<i>Eksport</i>	34	22,1	12,9
	<i>Import</i>	50,6	58,3	30,9

davomi


	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>6,1</b>	<b>28,1</b>	<b>33,3</b>
	<i>Eksport</i>	2,2	23,1	31,5
	<i>Import</i>	3,9	5,0	1,9
	<b>Slovakiya</b>	<b>8,3</b>	<b>21,4</b>	<b>31,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,001	0,0	0,0
	<i>Import</i>	8,3	21,4	31,4
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>11,6</b>	<b>17,7</b>	<b>30,6</b>
	<i>Eksport</i>	11,2	17,7	30,5
	<i>Import</i>	0,4	0,1	0,1
	<b>Hindiston</b>	<b>29,9</b>	<b>43,6</b>	<b>23,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,001	1,2
	<i>Import</i>	29,2	43,6	22,6
	<b>Pokiston</b>	<b>1,7</b>	<b>1,9</b>	<b>18,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,6	0,5	13,1
	<i>Import</i>	0,03	1,4	5,8
	<b>Chexiya</b>	<b>13,7</b>	<b>12,5</b>	<b>14,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	-	-
	<i>Import</i>	13,6	12,5	14,9
	<b>Polsha</b>	<b>8,4</b>	<b>11,9</b>	<b>14,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,9	0,5	1,3
	<i>Import</i>	7,4	11,4	13,3
	<b>Germaniya</b>	<b>28,8</b>	<b>34,4</b>	<b>11,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	0,3	0,4
	<i>Import</i>	28,2	34,1	10,8
	<b>Vetnam</b>	<b>0,6</b>	<b>9,7</b>	<b>9,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,003	0,02	0,02
	<i>Import</i>	0,6	9,7	9,6
	<b>Tayland</b>	<b>7,2</b>	<b>9,4</b>	<b>7,8</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	7,2	9,4	7,8

**Andijon viloyatining hududlar kesimida  
Tashqi savdo aylanmasi  
(2024-yil yanvar-sentabr)\***



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 59,1 % ulush bilan 1 781,5 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Marxamat tumani 0,4 % ulush bilan 10,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Andijon viloyatiining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari  
va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)




2024-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanma-sidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga oshdi.

Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 71,4 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 862,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 656,7 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 205,4 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

**ANDIJON VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO  
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 819,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 617,0 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 202,3 mln. AQSh dollariga yetdi.



Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2024-yil yanvar-sentabr)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 413 tani tashkil etib, ular tomonidan 830,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST bo'yicha eksport tarkibi

(2024-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

## Andijon viloyati XSST bo'yicha eksport tarkibi

(yanvar-sentabr,)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>869,7</b>	<b>830,4</b>	<b>100,5</b>	<b>95,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,3	47,0	99,0	155,3	3,5	5,7
Ichimliklar va tamaki	5,0	2,7	5,7 m.	53,8	0,6	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	2,1	80,0	63,1	0,4	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	53,5	7,4	71, m.	0,1	6,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,1	30,7	440,0 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	15,8	6,6	96,7	41,9	1,8	0,8
Sanoat tovarlari	189,4	200,0	86,5	105,6	21,8	24,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	390,7	294,3	118,1	75,3	44,8	35,4
Turli xil tayyor buyumlar	225,8	215,3	92,2	95,3	26,0	25,9
Xizmatlar	8,6	8,8	106,2	101,6	1,0	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (35,4 %), turli xil tayyor buyumlar (29,5 %), sanoat tovarlari (24,1), mineral yoqilg'I, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (6,4 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi**  
(2024-yil yanvar-sentabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	42 334,5	145,5
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	3 273,0	10,5 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	731,8	14,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	478,8	73,5
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	2 682,8	53,8
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	963,0	38,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	507,4	137,7
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	439,5	137,1
Probka va yo'goch-taxtalar	72,4	91,8
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	75,8	68,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	53 524,7	71,1 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	83,2	440,0 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 959,4	35,1
Noorganik kimyo moddalari	522,9	105,9
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	282,5	56,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	352,8	156,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	352,8	156,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	275,6	130,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	37,8	2,8 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	185 653,3	106,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5 249,5	128,7
Cho'yan va po'lat	3 562,1	42,3 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 660,2	141,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	278,3	5,3
Rangli metallar	653,4	45,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	189 324,8	73,7
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	91 026,4	77,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	7 183,7	116,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	5 651,8	72,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	436,0	18,6 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	203 270,0	97,4
Poyabzal	60 98,4	54,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 214,8	101,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	2 974,5	162,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	408,7	198,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	288,2	18,6
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	203 270,0	97,4

## MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi (yanvar-sentabr mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga 656,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportdagi ulushi 79,1 % ni tashkil etdi.

### MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmi, mln. AQSH dollari (yanvar-sentabr oylari)



### Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2024-yil yanvar-sentabr, % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining 36,8 %) va Rossiya Federatsiyasi (24,4 %) davlatlari yetakchilik qildi. Mazkur ikki yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi 61,2 % ni tashkil etdi.

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 43,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi 94,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 17,4 ming tonnaga ko'paydi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlari jami eksportning 5,3 foizini tashkil etdi.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2024-yil yanvar-sentabr, o'sish sur'atlari qiymat jihatidan)



<p><b>Uzum yangi uzilgan</b></p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>4,7 ming tonna</p> <p> 55,4% ↑</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>9,1 ming tonna</p> <p> 12,0% ↑</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>1,9 mln. AQSH dollari</p> <p>2,6 ming tonna</p> <p> 35,3% ↑</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>2,6 mln. AQSH dollari</p> <p>2,7 ming tonna</p> <p> 36,2% ↑</p>
<p><b>Sabzi</b></p> <p>4,0 mln. AQSH dollari</p> <p>25,8 ming tonna</p> <p> 86,5% ↑</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>0,9 mln. AQSH dollari</p> <p>5,6 ming tonna</p> <p> -51,7% ↓</p>	<p><b>Yeryong'oq</b></p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,6 ming tonna</p> <p> 37,1% ↑</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>4,9 mln. AQSH dollari</p> <p>21,7 ming tonna</p> <p> -17,7% ↓</p>

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (44,4 %), Rossiya Federatsiyasi (28,8 %), Afg'oniston (8,4 %), Turkiya (2,1 %), XXR (1,1 %) hamda Latviya (0,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## Meva va sabzavot mahsulotlarinig eksport geografiyasi

(2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)

	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da
 Qirg'iz Respublikasi	76 441,5	19 451,2	44,4
 Rossiya	13 960,8	12 602,5	28,8
 Afg'oniston	546,0	3 670,9	8,4
 Turkiya	436,5	930,9	2,1
 XXR	712,5	496,9	1,1
 Latviya	952,4	330,9	0,8
 Qozog'iston	157,5	241,9	0,6
 BAA	87,0	187,5	0,4
 Boshqalar	1 510,4	5 847,6	13,4

\*qiymat ifodasidan

2024-yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 44,4 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,5 barobar ko'p.



### To'qimachilik mahsulotlari eksporti

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha 389,4 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,9 foizini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,1 % ga ortdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (54,8 %), paxtadan yigirilgan ip (31,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 382 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 30 ta davlatiga eksport qilindi.


## Andijon viloyatining importi

(2024-yil yanvar-sentabr)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 2 184,2 mln. AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,1 %), sanoat tovarlari (19,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST bo'yicha import tarkibi

(2024-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 562,6 mln. AQSH dollariga kamaydi va 2 184,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 75,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

**Andijon viloyati XSST bo'yicha import tarkibi**  
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>2 746,8</b>	<b>2 184,2</b>	<b>118,9</b>	<b>79,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,7	24,2	134,0	153,9	0,6	1,1
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,4	194,8	151,7	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,2	20,3	109,9	111,6	0,7	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	23,4	133,4	2,3 m.	6,0 m.	0,9	6,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,6	1,1	11,7 m.	41,4	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	219,9	144,4	144,2	65,7	8,0	6,6
Sanoat tovarlari	499,7	427,7	96,4	85,6	18,2	19,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	1 798,4	1 269,8	133,0	70,6	65,4	58,1
Turli xil tayyor buyumlar	103,2	87,1	126,3	84,4	3,7	4,0
Xizmatlar	65,4	75,8	39,4	115,9	2,4	3,5

**XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi**  
(2024-yil yanvar-sentabr)


XSST bo‘limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7 224,7	150,1
Tirik hayvonlar, 03 bo‘limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	8 263,0	2,5 m.
Sabzavotlar va mevalar	2 383,3	99,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 540,6	108,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	385,0	151,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
Probka va yog‘och-taxtalar	5 146,7	87,1
Tabiiy kauchuk (sun‘iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	3 670,3	90,8
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindalari	3 308,2	55,8
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 534,9	174,6
<b>Neft va o‘xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	115 054,7	13,7 m.
Ko‘mir, koks va briketlar	12 550,1	89,4
Tabiiy yoki sun‘iy gaz	5 838,9	5,7 m.
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>		
O‘simlik moylari va yog‘lari	1 082,5	43,6
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar	3,3	2,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	42 380,9	60,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	37 599,8	82,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	22 358,3	52,0
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	16 007,8	69,8

*davomi*

<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Ming AQSh dollari</b>	<b>2023-yil yanvar-sentabga nisbatan, % da</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	178 243,1	109,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	90 903,2	77,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	98 092,5	76,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	37 240,0	68,9
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	753 780,0	66,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	144 984,7	116,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	110 742,4	64,1
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	110 075,6	134,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	30 008,6	59,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	32 546,9	110,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14 942,8	102,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	6 907,7	123,9
Poyabzal	973,2	68,8
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	675,3	65,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	942,7	186,6

2024-yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 9,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga ortdi.

### MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyati 64 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.

### Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2024-yil yanvar-sentabr, % da)




## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 427,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,4 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 19,6 % ga yetdi.

### Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2024-yil yanvar-sentabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (178,2 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (98,1 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (90,9 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (37,2 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tovar** - har qanday ko'chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

**Tovarlar eksporti** - agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Reeksport** – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

**Tovarlar importi** – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

**Reimport** – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

**Tashqi savdo aylanmasi** - mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** - tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** - yuklab jo'natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** - shartnoma valyutasidan qat'i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

**Xizmatlar (ishlar) importi** - norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*